



BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ORQALI TA'LIM VA TARBIYA JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH

Sattorova Iroda Azamat qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Email: irosh0505@icloud.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17340196>

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishning didaktik va tarbiyaviy ahamiyati yoritiladi. Muallif tomonidan interfaol metodlar, o'yin texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya vositalari va muammoli ta'lim elementlarining dars jarayoniga integratsiyasi orqali o'quvchilarda tafakkur, nutqiy faollik, mustaqil fikrlash va muloqot madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda nazariy yondashuvlar bilan bir qatorda muallifning shaxsiy kuzatuvlari, amaliy tajribalari ham e'tiborga olingan. Ushbu yondashuvlar asosida ta'lim va tarbiya jarayonini uyg'unlashtirish, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish va ta'lim samaradorligini kuchaytirish yo'llari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich ta'lim, ona tili darslari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, o'yin texnologiyalari, mustaqil fikrlash, ta'lim va tarbiya, muloqot ko'nikmalari.

Abstract: This article explores the didactic and educational significance of organizing native language lessons in primary school using modern pedagogical technologies. The author analyzes the potential for developing students' thinking, verbal activity, independent reasoning, and communication skills through the integration of interactive methods, game-based technologies, ICT tools, and elements of problem-based learning into the teaching process. The study considers both theoretical approaches and the author's personal observations and practical experiences. The paper provides a scientific and theoretical justification for harmonizing the teaching and educational process, enhancing students' interest in lessons, and improving the overall effectiveness of education.

Keywords: Primary education, native language lessons, modern pedagogical technologies, interactive methods, game-based learning, independent thinking, teaching and upbringing, communication skills.

Аннотация: В данной статье освещается дидактическое и воспитательное значение организации уроков родного языка в начальных классах на основе современных педагогических технологий. Автором проанализированы возможности формирования у учащихся мышления, речевой активности, самостоятельного мышления и культуры общения через интеграцию в учебный процесс интерактивных методов, игровых технологий, информационно-коммуникационных средств и элементов проблемного обучения. В исследовании учтены не только теоретические подходы, но и личные наблюдения и практический опыт автора. Научно-теоретически обоснованы пути гармонизации учебно-воспитательного процесса, повышения интереса учащихся к урокам и повышения эффективности обучения.



Ключевые слова: Начальное образование, уроки родного языка, современные педагогические технологии, интерактивные методы, игровые технологии, самостоятельное мышление, обучение и воспитание, коммуникативные навыки.

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar har bir fanni o'qitish metodikasini takomillashtirish, o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini ta'minlash, ularning tafakkuri, nutqiy faoliyati va ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda, boshlang'ich ta'lim — o'quvchining shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi bosqich bo'lib, bu davrda berilgan bilimlar, shakllantirilgan ko'nikma va tarbiyaviy ta'sirlar butun umrlik asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, ona tili fanining ushbu jarayondagi o'rni beqiyosdir. Chunki til – tafakkurning asosiy vositasi, muloqot, tushunish, ifoda va tarbiyaning poydevoridir.

Boshlang'ich sinflarda ona tili darslari orqali o'quvchilarda faqatgina grammatik bilimlar emas, balki og'zaki va yozma nutq madaniyati, estetik did, axloqiy ong va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usi shakllanadi. Ammo bu maqsadlarga erishish an'anaviy o'qitish metodlari bilan chegaralanib qolmasdan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar bilan boyitilishi zarur. Chunki zamonaviy dars – bu axborot beruvchi emas, balki o'quvchini faol ishtirokchi va bilim egasi sifatida shakllantiruvchi jarayondir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, jumladan, interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya vositalari, muammoli ta'lim, hamkorlikda o'qitish, differensial yondashuv va o'yin elementlari ona tili darslarini o'quvchining yosh va psixologik xususiyatlariga mos, mazmunan boy va tarbiyaviy jihatdan samarali qilishi mumkin. Ushbu texnologiyalar orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, fikrini erkin bayon eta olish, matnga tanqidiy yondashuv, xotira va diqqatni jamlash kabi ko'nikmalar shakllanadi. Shu bilan birga, darsning tarbiyaviy jihati ham kuchayib, o'quvchilar hayotga mos ijtimoiy fazilatlarini o'zlashtira boshlaydilar.

Shu boisdan, ushbu maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida boshlang'ich sinflarda ona tili darslarini takomillashtirish, ularning ta'limiy va tarbiyaviy samaradorligini oshirishga doir nazariy va amaliy yondashuvlar, metodik imkoniyatlar hamda pedagogik tajribalar yoritiladi. Maqsad – zamonaviy dars modelini yaratish orqali ona tili fanini o'quvchilar uchun qiziqarli, samarali va tarbiyaviy jihatdan boy vositaga aylantirishdir.

Asosiy qism: Boshlang'ich sinf o'quvchilari ta'limining muvaffaqiyati ko'p jihatdan ona tili faniga bog'liq. Ona tili nafaqat nutqiy ko'nikmalarni shakllantiradi, balki bolalarning fikrlash jarayonini rivojlantiradi, axloqiy va madaniy qadriyatlarni singdiradi. Shu boisdan, ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalarning dolzarb va samarali qo'llanilishi katta ahamiyatga ega.

Pedagogik jarayonda zamonaviy texnologiyalar — bu faqat axborot-kommunikatsiya vositalari (interaktiv doskalar, planshetlar, multimedia) emas, balki o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlovchi, ularni mustaqil fikrlashga undaydigan metodik yondashuvlar majmuasidir. Jean Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bolaning fikrlash qobiliyati bosqichma-bosqich shakllanadi va bu jarayonda faol o'rganish muhim ahamiyatga ega. J. Piagetning [The Psychology of the Child. New York: Basic Books] ushbu asarida bolaning intellektual rivojlanishini to'rt asosiy bosqichda ko'rsatadi: sensorimotor, oldoperatsional, konkret operatsional va formal operatsional. U bolaning dunyoni anglashda faol ishtirok etishi, muhit bilan o'zaro ta'siri orqali bilim olishini ta'kidlaydi. Kitob ta'lim jarayonida



o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun muhim nazariy asoslarni beradi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda bolalarning tafakkur darajasini hisobga olish va darslarni shu asosda tashkil etish zarurligini ta'kidlaydi. Shuning uchun ona tili darslarida muammoli ta'lim, interfaol metodlar va o'yin texnologiyalarini qo'llash bolalarning tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Muammoli ta'lim metodikasining asosiy vazifasi — o'quvchilarni muammolarni mustaqil aniqlash va yechish jarayoniga jalb qilishdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matnlarni o'qib, ulardagi asosiy g'oyani aniqlash, hikoya qahramonlarining xarakterini tahlil qilish, ularning harakatlariga baho berish kabi topshiriqlar berish mantiqiy fikrlashni faollashtiradi. Masalan, "Agar men bu voqeada bo'lganimda, qanday harakat qilardim?" kabi savollar o'quvchining fikr yuritishini chuqurlashtiradi.

Interfaol metodlar, jumladan "Aqliy hujum" (brainstorming), "Venn diagrammasi", "Baliq skeleti" (fishbone diagram), "Insert" usuli o'quvchilarni mavzuga faol jalb qiladi, ularni bir-biri bilan fikr almashishga, o'z fikrini asoslashga o'rgatadi. Bu metodlar ona tili darslarida o'quvchilarning nutqiy madaniyatini va mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshiradi. Johnson, Shokirovaning [Learning Together and Alone: Cooperative, Competitive, and Individualistic Learning] ushbu asarida ta'limda hamkorlik asosida o'rganishning ustunliklarini chuqur tahlil qilishadi. Ularning ta'kidlashicha, o'quvchilarning o'zaro muloqotda bo'lib ishlashi, bir-birini rag'batlantirishi va maqsadga yo'naltirilgan guruh faoliyati ta'lim samaradorligini oshiradi. Ular ilgari surgan "kooperativ ta'lim" modeli hozirgi kunda interfaol metodlarning nazariy asoslaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda ushbu yondashuvlar o'quvchilarning ijtimoiy, nutqiy va mantiqiy ko'nikmalarini bir vaqtda rivojlantirish imkonini beradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) o'quv jarayonini boyitib, darslarni qiziqarli va interaktiv qiladi. Masalan, interaktiv doskalar yordamida matnni ko'rsatish, multimediali taqdimotlar orqali tushunchalarni yanada aniqroq ifodalash mumkin. Bu vositalar o'quvchilarning eshitish va ko'rish orqali o'rganish imkoniyatlarini kengaytiradi, shu bilan birga mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Miller [Integrating Technology in the Classroom: Tools to Meet the Needs of Every Student] sinf xonalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish yo'llarini ko'rsatadi. Muallif texnologiyalarning o'quvchilar individual ehtiyojlariga moslashuvchan tarzda tatbiq etilishini, darslarni vizual, eshituv va kinestetik usullar bilan boyitish zarurligini ta'kidlaydi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda interaktiv taqdimotlar, ta'limiy o'yinlar, video va audiomateriallar orqali o'quvchilarni rag'batlantirish muhim ekanini urg'ulaydi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning e'tiborini jamlash, darsga qiziqishini oshirish va materialni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Shuningdek, AKT yordamida o'quvchilarga maxsus tayyorlangan testlar, viktorinalar va o'yinlar orqali bilimlarini mustahkamlash imkoniyati beriladi. Bu esa o'quv jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Sultonovning ushbu risolasida [Zamonaviy ta'limda o'yin texnologiyalarining o'rni] Ushbu ilmiy-uslubiy risolada Sultonov zamonaviy ta'limda, ayniqsa boshlang'ich ta'lim bosqichida o'yin texnologiyalarining o'quvchi faoliyatini faollashtirishdagi ahamiyatini tahlil qiladi. U o'yinlar yordamida o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish va mustaqil fikrlash qobiliyatini



shakllantirish mumkinligini asoslaydi. Asarda, shuningdek, o'yin texnologiyalarining turlari (didaktik o'yinlar, rolli o'yinlar, interfaol o'yinlar) va ularni ona tili darslariga integratsiya qilishning samarali usullari ham batafsil ko'rsatilgan. Muallif tomonidan real darslardan olingan misollar va metodik tavsiyalar asosida o'yin texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi samaradorligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Shaxsiy fikrimcha, boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida zamonaviy texnologiyalarni qo'llash nafaqat bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga, balki bolalarning qiziqishini oshirishga, ularni mustaqil fikrlashga, ijodkorlikka undashga xizmat qiladi. Ayniqsa, pedagoglarning didaktik va metodik tayyorgarligi yuqori bo'lsa, bunday texnologiyalar ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash uchun o'qituvchining malakasi, innovatsion yondashuvlarga ochiqligi va pedagogik kreativligi katta ahamiyatga ega. O'qituvchi nafaqat bilim manbai, balki o'quvchi faoliyatining tashkilotchisi, yo'nalish ko'rsatgichi va motivatori bo'lishi lozim. U o'z darslarini interfaol va didaktik vositalar bilan boyitib, har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini hisobga olishi muhimdir. Rahmonovning [Innovatsion pedagogik texnologiyalar va o'qituvchining roli] ushbu asarida ham ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. Mazkur asarda Rahmonov innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimiga samarali integratsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlarini ko'rib chiqadi. Muallif, ayniqsa, o'qituvchining zamonaviy metodikaga moslashuvchanligi, yangilikka ochiqligi va kasbiy mahorati haqida to'xtaladi. Unga ko'ra, pedagog zamonaviy texnologiyalarni bilish bilan cheklanmay, ularni maqsadga muvofiq, didaktik jihatdan asoslangan holda qo'llay olishi ham zarur.

Asarda boshlang'ich ta'limda, xususan ona tili va matematika fanlari darslarida innovatsion yondashuvlar yordamida o'quvchilarning fikrlash faolligini oshirish, muloqot ko'nikmalarini shakllantirish va dars samaradorligini ta'minlash bo'yicha metodik tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek, doimiy kasbiy rivojlanish, yangi metodik va texnologik yondashuvlarni o'rganish o'qituvchilarning kasbiy malakasini oshirib, ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Xulosa: Boshlang'ich ta'lim bosqichi — o'quvchilarning tafakkuri, nutqiy faoliyati, ijtimoiy ong va axloqiy qadriyatlari shakllanadigan poydevor davridir. Aynan shu bosqichda ona tili darslari nafaqat til va nutq ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki ta'lim va tarbiya jarayonining bir butunligini ta'minlovchi muhim omilga aylanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga samarali integratsiya qilish orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyati, muloqot madaniyati, muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish ko'nikmalari shakllantiriladi. Interfaol metodlar, o'yin texnologiyalari, muammoli ta'lim yondashuvlari va AKT vositalaridan foydalanish darslarni jonlantiradi, o'quvchilarning faolligini oshiradi va ularni o'z fikrini erkin ifodalashga undaydi.

Shuningdek, o'qituvchining innovatsion yondashuvlarga tayyorligi, doimiy kasbiy rivojlanishi va metodik savodxonligi — bu texnologiyalarni hayotga tatbiq etishda hal qiluvchi omildir. Shu boisdan boshlang'ich ta'limda ona tili darslarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish ta'lim sifatini tubdan oshirish, zamonaviy fikrlaydigan, kommunikativ va axloqiy barkamol avlodni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullaeva, M. (2020). Boshlang'ich ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo'llanilishi. Toshkent: Ilm ziyo.
2. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (1999). Learning Together and Alone: Cooperative, Competitive, and Individualistic Learning (5th ed.). Boston: Allyn and Bacon.
3. Miller, R. (2010). Integrating Technology in the Classroom: Tools to Meet the Needs of Every Student. New York: Scholastic Inc.
4. Piaget, J. (1972). The Psychology of the Child. New York: Basic Books.
5. Rahmonov, A. (2021). Innovatsion pedagogik texnologiyalar va o'qituvchining roli. Toshkent: Yangi asr avlodi.
6. Shokirova, G. (2018). Ona tili darslarida interfaol metodlarni qo'llash tajribasi. Toshkent: Ilmiy maqolalar to'plami.
7. Sultonov, T. (2019). Zamonaviy ta'limda o'yin texnologiyalarining o'rni. Toshkent: Fan va taraqqiyot.